

SHAHARDAGI FLORA VA FAUNA VAKILLARI UCHUN BIOXILMA-XILLIK MAYDONLARI.

M.F.Mutalibxonova

Biologiya fan yo'nalishi bo'yicha magistr.

Annotatsiya. 2023-2024 yillarda amalga oshirilgan dala tadqiqotlari, va tegishli gerbariy fondlari TASH, MW hamda GBIF xalqaro bazalari va mavjud adabiyot manbalari tahlili asosida, ilk marotaba, aniqlangan 59 turdan 20 tasi adventiv o'simliklar ekanligi qayd etildi. Mazkur turlar shahar florasida juda keng tarqalgan va noqulay muhit omillariga bardoshli, tez ko'payadigan begona o'simliklar hisoblanadi. Namangan shaharida joylashgan "Xurmatxon-aya" qabristonining bufer qismida dala-kuzatuv tahlillari amalga oshirildi. Hududdan 5 oilaning 20 turkumiga mansub 27 tur o'simlik ro'yxati shakllantirildi.

Kalit so'zlar: Adventiv o'simliklar, gerbariy fondi, dala tadqiqoti, biologik xilma xillik, invaziv maqom.

BIODIVERSITY FIELDS FOR FLORA AND FAUNA IN THE CITY.

M.F.Mutalibkhonova; Master in the field of biology.

Annotation. Field researches, based on 2023-2024, were the first 59 rounds, the relevant hereditary funds implemented in the manner, international databases and the analysis of existing literature sources and existing literature sources. These species are considered to be faster-efficient analyzes in the buffer in Khurmatkhan-Aya cemetery, located in the city of the city. From the area, a plant list of 27 species of family families belonging to the families of 5 families was formed.

Keywords: Adventive plants, herobulative fund, field research, biological diversity, invasive status.

БИОРАЗНООБРАЗИЕ ПОЛЯ ДЛЯ ФЛОРЫ И ФАУНЫ В ГОРОДЕ.

M.F.Mutalikhonova; Мастер в области биологии.

Аннотация. Полевые исследования, основанные на 2023-2024 годах, были первыми 59 раундами, соответствующими наследственными фондами, внедренными в порядке, международных баз данных и анализе существующих литературных источников и существующих литературных источников. Эти виды являются очень распространенными и не заинтересованными факторами окружающей среды, является быстрорастущим настороженным растением.

Анализ наблюдения в полевых условиях проводился на буфере кладбища Хурсана в Намангане. Из этого района был сформирован список из 27 видов семейства, принадлежащих к семьям из 5 семей.

Ключевые слова: Адвентивные растения, Геробативный фонд, полевые исследования, биологическое разнообразие, инвазивный статус.

Yurtimizda Davlat rahbari tomonidan Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichiga olib chiqish, biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini izchil amalga oshirish, Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish, atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" sifatida e'lon qilinishi, flora va fauna bioxilma-xilligini muhofaza qilishga qaratilgan ulkan qadam bo'ldi. Shu islohotlarga tayanib men ham namangan shahri urbanoflorasida tarqalgan adventiv bir urug'pallali o'simliklarni tahlil etishga kirishdim. Tahlil natijalariga ko'ra aniqlangan 59 turdan 20 tasi adventiv o'simliklar ekanligi qayd etildi. Mazkur turlar shahar florasida juda keng tarqalgan va noqulay muhit omillariga bardoshli, tez ko'payadigan begona o'simliklar hisoblanadi. Adventiv turlarni xavf darajasini umumiy baholash uchun, Notov (2009) metodikasidan foydalanish tavsiya etiladi. Ko'rsatkichlar ma'lum bir begona o'simlik uchun "invaziv maqom" olish va eng "faol va barqaror" taksonga ega bo'lgan guruhni aniqlash uchun foydalidir. Bugungi kunda Namangan shahar hududida bir nechta katta-kichik qabristonlar mavjud bo'lib, ular turli yillarda tashkil topgan. Ularga Xurmatxon-aya, Mangulik, Xonabod, Ot bozor qabristoni kabi ko'plab tabiiy hududlarni keltirish mumkin. Qabristonlar insonning to'g'ridan-tog'ri ta'siridan bir muncha ixotalangan hududlar bo'lganligi sababli, u yerda, turli xil o'simliklar va hayvonot dunyosi vakillarini uchratish mumkin. Qabristonlarning tuprog'i tosh-shag'alli, bo'z tuproqlar hisoblanadi. Yog'in miqdori turli miqdorda va asosiy qabristonlar qirlik, adir va dashtli hududlarda yoki shahar ichidagi tepaliklarda tashkil etiladi. U yerda lolalar, boychechak, gulsafsar kabi ko'plab o'simlik vakillarini uchratish mumkin. Ilk marotaba, sinov-tajriba asosida, Namangan shaharida joylashgan "Xurmatxon-aya" qabristonining bufer qismida dala-kuzatuv tahlillari amalga oshirildi. Hududdan 5 oilaning 20 turkumiga mansub 27 tur o'simlik ro'yxati shakllantirildi. Bugungi kunda O'zbekiston hududining 18% qismi to'liq o'zlashtirilgan, 82% qismi turli darajada antropogen ta'sirga uchragan. Bugungi kunda geografik axborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash va DNK ketma-ketligini aniqlash usullaridan foydalanish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va monitoring qilish urbanoflora tarkibini o'rganishda juda muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Bundan tashqari, qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, shaharlarda mavjud bo'lgan flora tur

tarkibining ro'yxatini tuzish, mahalliy aholi ishtirokida o'simlik turlarning doimiy monitoringini olib borish, yashil infratuzilmalarni yaratish, shaharlar ichida ham, shahar atrofida ham ekologik yo'laklarni yaratish va eng muhimi Namangan shahar hududida Botanika bog'ini tashkil etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish eng dolzarb masala hisoblanadi. Namangan shahar urbanoflorasidagi bir urug'pallali o'simliklar orasidan 20 ta adventiv (invaziv) o'simlik turlari aniqlandi. Mazkur turlar, shahar florasida juda keng tarqalgan va noqulay muhit omillariga bardoshli, tez ko'payadigan begona o'simliklar ekanligi bilan izohlanadi. Aniqlangan turlar orasida Poaceae (41), Cyperaceae (9) muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yetakchi oilalar spektri sinantrop muhit florasida xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Urbanoflorasining yetakchi turkumlar spektrida Poaceae va Cyperaceae oila turkumi dominantligi hududning o'ziga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi. Urbanofloradagi mavjud tur ro'yxatini tuzish, doimiy monitoringini olib borish, shahar ichida ham, shahar atrofida ham ekologik yo'laklarni yaratish va Namangan shaharida Botanika bog'ini tashkil etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алихаджиев М.Х., Эржапова Р.С. (2017). Итоги инвентаризации флоры города Грозного: систематическая и географическая структура // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Том 19, №2(2), – С. 211-215.
2. Звягинцев К.А. (2013). Природная фракция урбанофлоры Харькова: анализ и аннотированный конспект // Фиторазнообразие Восточной Европы 2013, VII: – С. 5- 28.
3. Определитель растений Средней Азии: (1968 – 1993). Т. II–X. – Ташкент: Фан.
4. Umedov A.M., Esanov H.Q., (2024). Buxoro shahri urbanoflorasining taksonomik tahlili. QarDU xabarlar (1)1. 144-152 bet. 135 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining yillik hisoboti (2022).